
Muhim va sifatli agrotexnik tadbirlar

Bag'dod tumanidagi "Xayrun Samarun" fermer xo'jaligi a'zolari joriy yilda 21 gektar erdagi paxta hamda 17 gektar maydondagi bug'doy parvarishini belgilangan agrotexnik tadbirlar doirasida olib borishmoqda.

"S-8290" navli paxtaning har gektaridan 40 sentnerdan hosil olish uchun hashoratlarga qarshi kurashish, mineral va mahalliy o'g'itlar bilan ishlov berish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 1 iyundan 1 iyulgacha mamlakatimizda "G'o'zada kafolatli hosil yaratish zarbdor oyligi" e'lon qilingani zimmamizdagi burch va mas'uliyat tuyg'usini yanada kuchaytirdi,-deydi fermer xo'jaligi rahbari Mo'minjon Abdurahmonov. - Shu kunlarda paxtaga ikkinchi o'g'it bilan ishlov berishga kirishildi. Hashoratlarga qarshi kurashishda kimyoviy qorishmalardan samarali foydalanish, erni chuqur yumshatish, kultivatsiya qilish chora-tadbirlari belgilandi.

Fermer joriy yilda 1 gektarli issiqxonadan 15 tonna pomidor-bodring, 2 gektar shaftoli bog'idan esa 60 tonna mevani xorijga eksport qilishni rejalashtirgan. SHu kunlarda xo'jalik dala shiyponida 200 tonna sig'imga ega zamonaviy muzlatgichli omborxonona qurib bitkazilyapti. Chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik tarmoqlari ham xo'jalikning qo'shimcha daromad manbalari sirasiga kiradi.

B. MADIYOROV.

Suratni Sh. QORABOEV olgan.

2018-06-05 13:25:34